

DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH SSENARIYLARI BILAN TANISHISH

Mamanova Muboshira Orif qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Negmatova Sevinch Ergash qizi

Qarshi davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16571547>

Annotatsiya. Maqolada darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali ssenariylari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, hamda amaliy bilimlarni chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar, gamifikatsiya, masofaviy ta'lim hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keng yoritiladi. O'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni rejalashtirish va samarali ssenariylar asosida tashkil etish usullari shular jumlasidan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuvlar asosida olib borish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta'lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Darsdan tashqari mashg'ulotlar, ssenariy, interfaol metodlar, gamifikatsiya, masofaviy ta'lim, AKT, kreativ yondashuv, innovatsion pedagogika, motivatsiya, ta'lim sifati.

Annotation. This article analyzes effective scenarios for organizing extracurricular activities and their significance in the educational process. Extracurricular activities play a crucial role in reinforcing students' knowledge, developing their creative and critical thinking skills, and deepening their practical understanding. Modern pedagogical technologies, including interactive methods, gamification, distance learning, and the use of information and communication technologies, are widely discussed. The article also explores ways to plan activities based on students' interests and organize them effectively through well-structured scenarios. The research findings indicate that conducting extracurricular activities using innovative approaches enhances students' motivation and contributes to improving the quality of education.

Keywords: Extracurricular activities, scenario, interactive methods, gamification, distance learning, ICT, creative approach, innovative pedagogy, motivation, education quality.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda takomillashib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni talab etib kelmoqda. An'anaviy dars mashg'ulotlari doirasida o'quvchilarga nazariy bilim berish bilan birgalikda ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababdan ham, darsdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish uchun xizmat qilib kelmoqda. Darsdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim tizimida turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. Ilmiy to'garaklar, amaliy mashg'ulotlar, loyihaviy ishlar, ekskursiyalar, seminar-treninglar va musobaqalar shular jumlasidandir. Bu faoliyat turlari o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratib kelmoqda. Ayniqsa, interfaol metodlar

asosida tashkil etilgan darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish va mustaqil qaror qabul qilish layoqatini oshirishga yordam beradi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga, metodik yondashuviga va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatiga bog'liq. Ta'lim muassasalarida ushbu jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchilarga metodik qo'llanmalar va uslubiy tavsiyalarni taqdim qilish ham muhim vazifa deb hisoblaymiz. Shuningdek, ota-onalar va jamiyatning ta'lim jarayonidagi faolligi ham o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo'llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Darsdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada xorijiy va O'zbekiston olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Siz bilan birgalikda mazkur sohada olib borilgan ba'zi ilmiy ishlar tahlilini ko'rib chiqamiz.

Finlandiya ta'lim tizimi dunyoda eng ilg'or tizimlardan biri va unda darsdan tashqari mashg'ulotlarga katta e'tibor beriladi. Pasi Sahlberg (2015) o'zining "Finlandiya saboqlari: Dunyo Finlandiya ta'lim islohotlaridan nima o'rganishi mumkin?" nomli kitobida Finlyandiya maktablarida qo'llanilayotgan interfaol va darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilar rivojlanishiga ta'siri haqida ta'kidlab o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Pasi Sahlberg fikriga ko'ra "Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish bilan birga, ularda ijtimoiy mas'uliyat hissini ham shakllantiradi".[2]

Amerikalik pedagog John Hattie (2008) o'zining "Ko'rinadigan ta'lim" asarida ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan turli metodlarni tahlil qilib, darsdan tashqari faoliyatning ahamiyatiga to'xtalib o'tgan. John Hattie tadqiqotlariga ko'ra: "O'quvchilar darsdan tashqari loyihalar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini chuqurlashtirib, nazariy ma'lumotlarni real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar".[1]

O'zbekiston olimlari tomonidan ham darsdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Pedagogika fanlari doktori A. Abduqodirov o'zining "Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish" nomli asarida darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga ta'sirini ko'rib chiqqan. A.Abduqodirov shunday ta'kidlaydi: "Darsdan tashqari mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish bilan birgalikda, ularning bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi".[3]

Shu bilan birgalikda, pedagogika fanlari doktori Sh. Qodirov o'zining "O'quv jarayonida darsdan tashqari faoliyatlarning o'rni" nomli ilmiy maqolasida ta'lim sifati va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida darsdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: "Maktab va oliy ta'lim tizimida o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur. Bu nafaqat o'quv jarayoniga, balki yoshlarning kelajakdagi kasbiy mahoratiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi".[4]

Metod va natija. Masofaviy ta'lim va AKTdan foydalanish metodi - axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali darsdan tashqari mashg'ulotlarni


onlayn platformalar yordamida tashkil etish mumkin. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish usullarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Onlayn platformalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarga ta'lim jarayonidan istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, vebinarlar va gamifikatsiyadan foydalanish orqali ta'lim jarayoni samarali va interfaol tashkil qilinadi.

Interfaol metodlar - bu usulda o'quvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun interfaol texnologiyalar, munozaralar va guruhli ishlardan foydalaniladi. O'quvchilarning faolligini oshirish va ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan metodlar hisoblanadi. Ushbu metodlar darsdan tashqari mashg'ulotlarda samarali qo'llanib, o'quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalb qiladi. Jumladan, sizga o'yin metodi va uni ta'limda qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

O'yin (Gamifikatsiya) metodi - darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'yin shaklida tashkil qilish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularda qiziqish uyg'otish mumkin. Bu ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun o'yin mexanizmlaridan foydalanish metodikasi. Ushbu uslub o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularda qiziqish uyg'otish va ularni faol ishtirok etishga undash uchun ishlatiladi.

“Bilimlar sarguzashti” o'yinini ko'rib chiqamiz. Bu o'yin jamoaviy stol usti yoki mobil ilova sifatida ishlatiladigan ta'limiy o'yin hisoblanadi. O'yinimiz 10-18 yoshli o'quvchilar uchun mos bo'lib, o'yinni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning turli fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlash va ularni ijodiy fikrlashga undash. Bizning o'yinimiz 30-60 daqiqa davom etishi mumkin. O'yinimiz maydoni xarita shaklida bo'lib, o'quvchilar bilim izlab turli hududlarni o'rganishadi. Har bir jamoa o'qituvchi yoki o'yin rahbari tomonidan berilgan bilim sinovlaridan o'tib, maxsus vazifalarni bajaradi. O'yin davomida ishtirokchilar turli fanlardan savollarga javob berishadi (matematika, biologiya, tarix, geografiya, adabiyot va boshqalar). “Sirli xazina” kartasi: to'g'ri javob bergan jamoa qo'shimcha ball oladi. “Sirli sinov” kartasi: jamoa kodni yechishi yoki matematik jumboqni hal qilishi kerak bo'ladi. “Yo'qotilgan bilim” kartasi: jamoa xato qilsa, oldingi bosqichga qaytadi. O'yin oxirida eng ko'p bilim to'plagan jamoa g'olib bo'ladi va maxsus sovrin yoki rag'batga ega bo'ladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va interfaol qilishda bu o'yin biz uchun foydali. O'quvchilarning bilimini mustahkamlaydi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'yin orqali o'quvchilar o'z fanlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.(1-rasm)



1-rasm. Bilimlar sarguzashti o'yini

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, darsdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning qiziqishlarini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali ssenariylari ko'rib chiqildi va ulardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilindi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar, gamifikatsiya (o'yinga asoslangan ta'lim), masofaviy ta'lim texnologiyalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali darsdan tashqari mashg'ulotlarni yanada samarali tashkil etish mumkinligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va bilimlarni real hayotda qo'llashga undash imkonini beradi. Kelajakda darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion usullarini yanada rivojlantirish, ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilish hamda o'quvchilarning ehtiyojlari va zamonaviy talablar asosida moslashtirish zarur vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada tadqiqotlarni davom ettirish va yangi pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayeva, Feruza, and Aziza Normatova. "KATTA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) UCHUN DBMS TIZIMLARI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 3.14 (2024): 31-35.
2. Berdiyeva, Gulnoza. "O'ZBEKISTON ELEKTRON SAVDO TIZIMIDA MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR." *Science and innovation in the education system* 3 (2024): 16-22.
3. Berdiyeva, Gulnoza. "RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3 (2024): 11-14.
4. ShukurulloFayzullo o'g'li, A. (2024). TA 'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH. *PEDAGOGS*, 50(2), 51-55.
5. Aliqulov, Shukurullo, Ziyavutdin Turayev, and Javlon Nishonov. "BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURINING ROLI VA AHAMIYATI." *Молодые ученые* 2.10 (2024): 85-90.
6. Fayzullo o'g'li, Shukurullo. "Aliqulov." *TA 'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH.* *PEDAGOGS* 50 (2024): 51-55.
7. Qodirov, Farrux, Muxlisa Mavlonova, and Sevinch Negmatova. "YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 3 (2024): 13-15.
8. Otabekov, Akbar, and Sevinch Negmatova. "EFFECTIVENESS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ALGORITHMS IN CYBERSECURITY." *Инновационные исследования в науке* 4.5 (2025): 50-52.
9. Qodirov, Farrux, Baxtiniso Boqiyeva, and Sevinch Negmatova. "TCP/IP PROTOKOLLAR STEKI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 128-132.

10. Qodirov, Farrux, Yulduz Ahmedova, and Sevinch Negmatova. "KOMPYUTER TARMOQLARINING ASOSIY ELEMENTLARI." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 133-137.
11. Qodirov, Farrux, Dilmurod Abdullayev, and Sevinch Negmatova. "KOMPYUTER TARMOQLARINING STANDART TEXNOLOGIYALARI." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 146-151.
12. Qodirov, Farrux, Dilmurod Abdullayev, and Sevinch Negmatova. "ELEKTRON TIJORAT (E-COMMERCE)." *Наука и технология в современном мире* 4.5 (2025): 66-70.
13. Qodirov, Farrux, Iqbol Abdimurodova, and Sevinch Negmatova. "ELEKTRON HUJJAT ALMASHISH TIZIMLARI." *Наука и технология в современном мире* 4.5 (2025): 71-74.
14. Qodirov, Farrux, Gulsevar Keldiyorova, and Sevinch Negmatova. "BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI." *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.3 (2025): 58-62.
15. Hayitmurodov, Ilhom, and Sevinch Negmatova. "BULUTLI HISOBLASHLAR VA ULARNING ASOSIY TUSHUNCHALARI. BULUTLI SAQLASH MODELLARI." *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.3 (2025): 68-73.
16. Qodirov, Farrux, Jasmina Murodulloyeva, and Sevinch Negmatova. "SMART TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VOSITALARI." *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.3 (2025): 63-67.
17. Qodirov, Farrux, and Asila Xolmurodova. "SMART TEXNALOGIYALAR VA AQLLI QURILMALAR." *Наука и инновация* 3.7 (2025): 138-144.
18. Nurmaxmatova, Umida, and Sevinch Negmatova. "BLOKCHAYEN TEXNOLOGIYASINING ISHLASH PRINSIPLARI." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 60-63.